

**MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISH TUSHUNCHALARI VA ULARNING TA'LIM
JARAYONIDAGI AHAMIYATI**

Madatov Ilhom Yusup o'g'li¹,

Jumayeva Mahbuba Abubakr qizi²

*¹Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti
maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*²Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti
Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 1-kurs magistranti
ilhommadatov7@gmail.com*

Anotatsiya: Ushbu maqolada mustaqil ta'lim va mustaqil ish tushunchalarining mazmuni, ularning zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Mustaqil ta'lim – talabanning o'z bilimini mustaqil ravishda izlash, o'rganish, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Mustaqil ish esa talabanning o'quv dasturi asosida berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarish faoliyati bo'lib, uning mas'uliyat, fikrlash faolligi va kompetensiyalarni shakllantirishdagi roli ko'rsatib o'tiladi. Maqolada mustaqil ta'limni tashkil etishning samarali usullari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatlari hamda talabalarning o'quv motivatsiyasi va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, mustaqil ishning o'quv sifatini oshirish, talabanning o'z ustida ishlash madaniyatini rivojlantirish va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati tahliliy o'rganiladi.

Kalit so'zla: Mustaqil ta'lim, mustaqil ish, ta'lim jarayoni, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, o'quv faoliyati, talaba faolligi, kompetensiya, o'quv motivatsiyasi, o'z ustida ishlash, mas'uliyat, ijodiy fikrlash, refleksiya, raqamli resurslar, pedagogik jarayon, o'quv samaradorligi.

**ПОНЯТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ И
САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ**

Аннотация: В данной статье анализируются сущность понятий «самостоятельное обучение» и «самостоятельная работа», а также их роль и

значение в современном образовательном процессе. Самостоятельное обучение трактуется как процесс поиска, изучения, анализа и практического применения знаний студентом на основе собственной инициативы. Самостоятельная работа рассматривается как деятельность студента по выполнению заданий, предусмотренных учебной программой, что способствует формированию ответственности, мыслительной активности и компетенций. В статье освещаются эффективные методы организации самостоятельного обучения, современные педагогические технологии, возможности использования цифровых ресурсов, а также их влияние на развитие учебной мотивации и творческого мышления студентов. Кроме того, проводится аналитическое исследование значимости самостоятельной работы в повышении качества обучения, развитии культуры самостоятельного развития и формировании профессиональных компетенций.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, самостоятельная работа, образовательный процесс, современные образовательные технологии, учебная деятельность, активность студентов, компетенция, учебная мотивация, саморазвитие, ответственность, творческое мышление, рефлексия, цифровые ресурсы, педагогический процесс, учебная эффективность.

CONCEPTS OF INDEPENDENT LEARNING AND INDEPENDENT WORK AND THEIR IMPORTANCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract: This article analyzes the essence of the concepts “independent learning” and “independent work,” as well as their role and significance in the modern educational process. Independent learning is interpreted as a process in which the student independently searches for, studies, analyzes, and applies knowledge in practice. Independent work is defined as the student's activity in completing tasks assigned within the curriculum, contributing to the development of responsibility, cognitive activity, and competencies. The article highlights effective methods of organizing independent learning, modern pedagogical technologies, opportunities for using digital resources, and their impact on enhancing students' learning motivation

and creative thinking. Additionally, the significance of independent work in improving learning quality, developing a culture of self-development, and forming professional competencies is analytically examined.

Keywords: independent learning, independent work, educational process, modern educational technologies, learning activity, student engagement, competence, learning motivation, self-development, responsibility, creative thinking, reflection, digital resources, pedagogical process, learning effectiveness.

Kirish .XXI asrda ta'lim tizimida sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, talabalarning mustaqil fikrlashi va ijodiy izlanishlarini kuchaytirishni talab qilmoqda. Bunda mustaqil ta'lim va mustaqil ishning ahamiyati nihoyatda katta. Har bir talaba o'z ustida ishlashni, axborotlarni izlab topishni, ularni tahlil qilishni va amaliyotga tatbiq etishni o'rganishi zamonaviy ta'limning eng muhim talablaridan biridir. Mustaqil ta'lim talabaning o'z-o'zini rivojlantirishga, intellektual salohiyatini yuksaltirishga, mantiqiy va tanqidiy fikrlashini shakllantirishga xizmat qiladi. Mustaqil ish esa o'quv dasturidagi vazifalarni o'z vaqtida, sifatli va mas'uliyat bilan bajarishni talab etuvchi faoliyat bo'lib, u ta'limning ajralmas bo'lagiga aylangan. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ishlar orqali talabalarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko'nikmalari va o'z ustida ishlash madaniyati shakllanmoqda. Maqolaning maqsadi — mustaqil ta'lim va mustaqil ish tushunchalarining mohiyatini yoritish, ularning ta'lim jarayonidagi o'rnini tahlil qilish, zamonaviy yondashuvlar va texnologiyalar asosida mustaqil o'qishni tashkil etish imkoniyatlarini ko'rsatishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili.

Mustaqil ta'lim tushunchasi va uning nazariy asosi - Pedagogik adabiyotlarda mustaqil ta'lim talabaning bilim olishga qaratilgan ongli, maqsadli va izchil faoliyati sifatida talqin etiladi. Mustaqil ta'lim o'qituvchi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri boshqarilmaydi, balki talabaning ichki motivatsiyasi, intilishi va o'zini o'zi rag'batlantirishi orqali kechadi.

Avstraliyalik olim John Burville Biggs o'zining «Teaching for Quality Learning at University» (2003-yil) asarida «constructive alignment» (konstruktiv muvofiqlik) tamoyilini ilgari surgan bo'lib, u o'quv maqsadlari, baholash va ta'lim metodikasi bir butun tizimda uyg'un bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Bu yondashuvda mustaqil topshiriqlar nafaqat bilimlarni tekshiruvchi vosita, balki o'rganishni chuqurlashtiruvchi mexanizm sifatida qaraladi [8, 45].

J.B.Biggsning fikricha, mustaqil topshiriq oddiy ma'lumot takrorlash uchun emas, balki chuqur o'rganish (deep learning) uchun tuzilishi kerak. Topshiriqlar o'quv natijalari (learning outcomes) bilan moslashtirilgan bo'lishi shart, ya'ni talabaga qo'yilgan natija qanday bo'lsa, topshiriq ham shu natijaga erishishga xizmat qilishi kerak. Biggs SOLO taksonomiyasida mustaqil ta'limni quyidagi bosqichma-bosqich rivojlantirishni tavsiya qiladi [6, 13]:

1. Pre-structural – mavzuni tushunmaslik yoki noto'g'ri tushunish;
2. Uni-structural – bitta jihatni bilish (oddiy fakt);
3. Multi-structural – bir nechta jihatlarni bilish, lekin ular orasidagi aloqani ko'ra olmaslik;
4. Relational – bilimlarni bog'lash va umumlashtirish;
5. Extended Abstract – bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llash, tahlil qilish, yangi g'oyalar yaratish [8, 61].

Mustaqil topshiriqlar yuqorida keltirilgan ketma-ketlik asosida tuzilsa, talabalar asta-sekin yuqori darajadagi kreativ fikrlashga o'tadi.

Tahlil va natijalar.

Mustaqil ta'lim quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

1. shaxsiy rivojlanishning asosiy omili – talaba mustaqil ravishda bilim olarkan, u o'z intellektual salohiyatini kengaytiradi.
2. ijodiy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmasi – mustaqil ravishda bajarilgan ishlar talabaning tahliliy yondashuvini rivojlantiradi.
3. mas'uliyatni oshirish – talaba o'z o'qish jarayoniga mas'ul bo'ladi.

4. axborot bilan ishlash madaniyati – mustaqil ta’lim davomida talaba kerakli ma’lumotni topish, ajratish, solishtirish va xulosa chiqarishni o’rganadi.

Zamonaviy ta’lim tizimi talabaning faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi obyekt emas, balki ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi — subyekti bo’lishini talab qiladi. Mustaqil ta’lim aynan shu o’zgarishning asosiy sharti bo’lib xizmat qiladi. Mustaqil ta’lim jarayonida talaba o’zi izlanadi, o’rganadi, manbalar topadi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi. Bu esa uni passiv tinglovchidan faol o’rganuvchiga aylantiradi. Mustaqil o’qiyotgan talaba o’z natijasi uchun javobgar bo’ladi. Reja tuzadi, vaqtni taqsimlaydi, topshiriqlarni nazorat qiladi. Bu jarayonlar uni mustaqil subyekt sifatida shakllantiradi. Talaba muammoni o’zi hal qilishga harakat qilgani sababli unda tahliliy, tanqidiy va ijodiy fikrlash kuchayadi. Bu esa ta’lim jarayonida faol ishtirok etish uchun zarur bo’lgan shaxsiy sifatdir. Zamonaviy ta’limda talaba maqsad qo’yadi, bilim olish strategiyalarini tanlaydi, kerakli manbalarni izlab topadi va o’z rivojlanishini mustaqil nazorat qiladi. Bu jarayonlar o’z-o’zini boshqarish ko’nikmasini rivojlantiradi. Mustaqil ta’lim — talabaning o’z ustida ishlash, ma’lumot izlash, qaror qabul qilish, mas’uliyatni o’z bo’yniga olish va bilimlarni amaliyotga tatbiq etish jarayonidir. Shu jihatlari uni ta’limning faol subyekti sifatida shakllantiradi. Shuning uchun zamonaviy o’quv jarayonida mustaqil ta’lim — talabaning faol, mustaqil va mas’uliyatli shaxsga aylanishining eng muhim kafolati hisoblanadi. Mustaqil ish – o’qituvchi tomonidan belgilangan o’quv topshiriqlarini talabaning mustaqil bajarishi demakdir. Bu jarayon ta’lim samaradorligining oshishiga, talabaning o’z-o’zini nazorat qilish va baholash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

mustaqil ish quyidagi turlarga bo’linadi:

nazariy mustaqil ishlar:

referat, konspekt, esse, maqola tayyorlash;

amaliy mustaqil ishlar: amaliy mashg’ulotlar, laboratoriya ishlari, loyihalar;

ijodiy mustaqil ishlar: taqdimotlar, innovatsion loyihalar, ilmiy izlanishlar;

nazorat shaklidagi mustaqil ishlar: testlar, mustaqil tekshiruv ishlari, portfoliolar.

Ushbu ishlar talabaning bilim darajasi, qiziqishi va kasbiy yo'nalishiga qarab turlicha shakllantiriladi. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishning ta'lim jarayonidagi ahamiyati - Mustaqil ta'lim va mustaqil ish zamonaviy ta'lim jarayonining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda pedagogik yondashuvlar talabaning faolligini oshirish, uni bilim oluvchi emas, balki bilim yaratuvchi subyekt sifatida shakllantirishga qaratilmoqda. Ana shu jarayonda mustaqil ta'limning o'rni beqiyosdir. Avvalo, mustaqil ta'lim talabaning o'z-o'zini rivojlantirish, o'quv jarayonini mustaqil boshqarish, vaqtni rejalashtirish kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi. Talaba darsda berilgan bilimlar asosida yangi manbalarni o'rganadi, tahlil qiladi, xulosa chiqaradi va o'z nuqtai nazarini shakllantira oladi. Bu esa uning analitik fikrlashi va kreativ qarashlarini kuchaytiradi.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishning ta'lim jarayonidagi ahamiyati:

1. bilimlarni chuqur o'zlashtirish - mustaqil o'rganilgan ma'lumot ancha mustahkam bo'ladi. talaba mavzu bo'yicha qo'shimcha manbalar o'qiydi, izlanadi va o'z fikriga ega bo'ladi.

2. talabaning faolligini kuchaytiradi - mustaqil ishlar talabaning o'qish jarayonida faol bo'lishiga, tashabbuskorlik ko'rsatishiga va mas'uliyatni his qilishiga yordam beradi.

3. kasbiy kompetensiyalarni rivojlantiradi - ta'limning kompetensiyaviy yondashuvi talabalar o'z kasbiy faoliyatida uchraydigan real vazifalarni mustaqil hal qilishga tayyorlanishini taqozo etadi.

4. ijodkorlikni rivojlantiradi - mustaqil ravishda yozilgan ilmiy ishlar, amaliy topshiriqlar va izlanishlar talabaning ijodiy tafakkurini kengaytiradi.

5. tanqidiy va analitik fikrlashni shakllantiradi - talaba mustaqil ravishda bilimni tahlil qiladi, solishtiradi, dalillaydi va xulosalar chiqaradi.

6. raqamli ta'lim vositalarining mustaqil ta'limga ta'siri - bugungi kunda raqamli texnologiyalar mustaqil ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Elektron darsliklar, videodarslar, onlayn testlar va interfaol platformalar orqali talaba istalgan joyda, istalgan vaqtda o'qish imkoniyatiga ega.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda uchraydigan muammolar va ularning yechimi

1. Motivatsiyaning pastligi - Talaba mustaqil ishlashga yetarli qiziqishga ega bo'lmisligi mumkin. Yechim: rag'batlantirish, qiziqarli topshiriqlar, ijodiy yondashuv.

2. Vaqtni boshqara olmaslik - Rejalashtirish ko'nikmasi shakllanmagan bo'lishi mumkin. Yechim: talabalarga rejalashtirish bo'yicha ko'nikma berish.

3. Manbalar bilan ishlashdagi qiyinchiliklar - Talaba ilmiy manbalarni tanlash va tahlil qilishda qiynaladi. Yechim: axborot madaniyatini o'rgatish.

4. Nazoratning sustligi - Ba'zan mustaqil ishlar sifat nazoratidan yetarli darajada o'tmaydi. Yechim: reyting tizimini takomillashtirish, aniq mezonlar joriy etish.

XULOSA

Maqolada mustaqil ta'lim va mustaqil ishning ta'lim jarayonidagi o'rni, ahamiyati va zamonaviy ta'limga qo'shayotgan hissassi tahlil qilindi. Bugungi kunda talabaning mustaqil fikr yuritishi, o'z bilimini boyitishi, kompetensiyalarini rivojlantirishida mustaqil ta'limning ahamiyati juda kattadir. Mustaqil ish esa bilimlarni amaliyotda qo'llash, talabaning mas'uliyati va faolligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Raqamli ta'limning rivojlanishi mustaqil o'qish jarayonini yanada qulaylashtirdi va uning samaradorligini oshirdi. Shu sababli mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil etish bugungi ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish va sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4884-son qarori. – <https://lex.uz/docs/-5085887>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martdagi "Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 157-son qarori. – <https://lex.uz/docs/-6854214>

3. Usmonov S., Yo‘ldoshev J. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2020.
4. Hasanboeva O., Abduqodirov A. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Innovatsiya, 2019.
5. UNESCO. Education 2030: Framework for Action. – Paris, 2016.
6. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. – London: Open University Press, 2009.
7. Oxford R. Learning Strategies in Language Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
8. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent, 2019.
9. Tolipov O., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari (darslik). – Toshkent, 2017.
10. Muslimov N. Kasbiy ta’lim pedagogikasi (darslik). – Toshkent, 2016.